

FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI

ЖУРНАЛ ФУНДАМЕНТАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF FUNDAMENTAL STUDIES

MUHSINOV Olimjon Qosimjon o'g'li,
Namangan davlat universiteti
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15348189>

MARKAZIY OSIYO KOREYSLARINING MADANIY MOSLASHUV JARAYONI VA KUNDALIK HAYOTI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Markaziy Osiyoga 1937-yilda deportatsiya qilingan koreyslar – koryo saramlarning madaniy moslashuvi va kundalik hayotidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ularning madaniy merosni saqlab qolish harakatlari, til muammolari, aralash nikohlar va ijtimoiy integratsiya jarayonlari o'rganiladi.

Shuningdek, yosh avlodning koreys identitetiga munosabati va sovet siyosatining uzoq muddatli ta'siri yoritiladi. Maqola tarixiy, sotsiologik va madaniy faktlarga tayangan holda yozilgan bo'lib, Markaziy Osiyodagi ko'p millatli jamiyatlarda madaniy uyg'unlashuv jarayonini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Koryo saram, Markaziy Osiyo koreyslari, koryo saram, madaniy moslashuv, etnik, deportatsiya, til yo'qolishi, koreys diasporasi, aralash nikohlar, madaniy meros, Sovet siyosati, integratsiya, ko'p madaniyatlilik.

КУЛЬТУРНАЯ АДАПТАЦИЯ КОРЕЙЦЕВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ПРОЦЕСС И ПОВСЕДНЕВНАЯ ЖИЗНЬ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется культурная адаптация и изменения в повседневной жизни корейцев - корё сарам, - депортированных в Среднюю Азию в 1937 году. В исследовании будут рассмотрены их усилия по сохранению культурного наследия, языковые проблемы, смешанные браки и процессы социальной интеграции. В статье также рассматривается отношение молодого поколения к корейской идентичности и долгосрочное влияние советской политики.

Статья основана на исторических, социологических и культурных фактах и раскрывает процесс культурной ассимиляции в многонациональных обществах Центральной Азии.

Ключевые слова: Корё сарам, корейцы Центральной Азии, Корё сарам, культурная ассимиляция, этническая принадлежность, депортация, утрата языка, корейская диаспора, смешанные браки, культурное наследие, советская политика, интеграция, мультикультурализм.

CULTURAL ADAPTATION OF CENTRAL ASIAN KOREANS PROCESS AND DAILY LIFE

ANNOTATION

This article analyzes the cultural adaptation and changes in the daily lives of the Koreans deported to Central Asia in 1937 - the Koryo Saram. The research examines their efforts to preserve their cultural heritage, language problems, intermarriage, and social integration processes. It also examines the attitude of the younger generation to Korean identity and the long-term impact of Soviet policies.

The article is written based on historical, sociological, and cultural facts, revealing the process of cultural assimilation in the multinational societies of Central Asia.

Keywords: Koryo Saram, Central Asian Koreans, Koryo Saram, cultural assimilation, ethnicity, deportation, language loss, Korean diaspora, intermarriage, cultural heritage, Soviet policy, integration, multiculturalism.

Kirish

Markaziy Osiyodagi koreyslar, ya'ni Koryo saramlar, o'zining uzun va murakkab tarixi bilan ajralib turadi. Ularning tarixi 19-asr oxiriga borib taqaladi, o'shanda Koreya yarimorolidan Rossiya imperiyasiga ko'chib kelgan koreys migrantlarining birinchi avlodi paydo bo'ldi. Bu migrantlar o'z vatanidan uzoqda yashashga majbur bo'lishdi, lekin o'zining madaniy an'analari va tilini saqlab qolishga harakat qilishdi. 1937-yilda Sovet hukumati tomonidan koreyslar Rossiya, Qozog'iston va O'zbekistonga deportatsiya qilindi, bu voqea Koreya xalqining taqdiri uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi [1].

Hozirgi kunda Markaziy Osiyodagi koreyslar, o'z tarixini va madaniyatini saqlab qolgan holda, mahalliy jamiyatda o'z o'rnini topgan. Koryo saramlar o'zlarining milliy identitetlarini saqlash bilan birga, yangi yashash joylariga moslashishga muvaffaq bo'lishdi. Bugungi kunda koreyslar, asosan, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarida istiqomat qilishadi, ular turli sohalarda faoliyat yuritib, mahalliy iqtisodiyot va madaniyatga o'z hissalarini qo'shmoqda.

Mazkur maqolada Markaziy Osiyodagi koreyslarning madaniy identiteti, kundalik hayoti va mahalliy jamiyatga moslashish jarayonlari haqida so'z yuritiladi. Ularning madaniy merosini saqlashdagi harakatlari va mahalliy xalqlar bilan integratsiyasi, butun dunyoda amalga oshirilgan migratsiya va integratsiya jarayonlarining o'ziga xos namunasi sifatida tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, koreyslar o'rtasidagi milliy va madaniy aloqalar, ularning yangi jamiyatga moslashishning turli shakllari haqida ham ko'proq ma'lumot beradi.

Madaniyatni saqlab qolish

Markaziy Osiyodagi koreyslar o'zlarining madaniy meroslarini saqlab qolish uchun katta sa'y-harakatlar qilgan. Deportatsiya va sovet davri davomida, koreyslar o'zining tilini, an'alarini va diniy marosimlarini saqlab qolish uchun katta kurash olib borganlar. Bu davrda, mahalliy jamoalar bilan aralashish va ko'plab madaniy jihatlarni o'zlashtirishga majbur bo'lsalar-da, o'ziga xos koreys identitetini saqlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ammo, 1930–1940-yillarda koreys tili maktablarda keng o'qitilgan bo'lsa-da, 1950-yillarda rus tilining hukmronligi tufayli koreys tili darslari asta-sekin yo'qola boshladi. Koreys tilini saqlash Koreya diasporasi uchun muhim masala bo'lib qolgan. Koreys ziyolilari milliy madaniyat va tilning kelajagidan xavotirlanib, rasmiylarga murojaat qilganlar. Shu davrda urush, Stalinning o'limi va siyosiy o'zgarishlar koreyslar ta'limiga kuchli ta'sir ko'rsatgan [2].

1989-yilgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'istondagi koreyslarning 51,7 foizi koreys tilini ona tili deb ko'rsatgan, biroq ularning ko'pchiligi bu tilda gapira yoki yaza olmagan. Xuddi shunday holat O'zbekistonda ham kuzatilgan [3].

Shunday bo'lsa-da, hozirgi kunda koreys tiliga bo'lgan qiziqish hali ham saqlanib qolmoqda. Ba'zi oilalar va madaniyat markazlari yosh avlodni koreys tilida ta'lim berishga intilmoqda.

“Koryo Saramlar uchun taom o‘z koreysligini saqlab qolish va Markaziy Osiyoning real sharoitlariga moslashish vositasi bo‘lgan. Morkovcha va kuksu kabi taomlar madaniy barqarorlikning ramziga aylangan [4].

Markaziy Osiyodagi Koryo Saram jamoasi o‘ziga xos oziq-ovqat madaniyatini shakllantirgan bo‘lib, u an’anaviy koreys va Markaziy Osiyo taomlari ta’sirida rivojlangan. Ularning mashhur taomlari qatoriga morkovcha (kimchi o‘rnida yaratilgan achchiq sabzi salati), kuksu (sovuq lag‘monga o‘xshash sho‘rva) va manti (bug‘da pishirilgan chuchvaralar) kiradi. Sovet davrida Koryo Saram oshxonasi rus va mahalliy Markaziy Osiyo taomlarining unsurlarini ham o‘zlashtirib, boy va rang-barang ta‘m uyg‘unligini hosil qildi. Kundalik hayotda Koryo Saram aholisi zamonaviy kiyimlarni kiyadi, biroq madaniy tadbirlar va marosimlarda ko‘pincha zamonaviylashtirilgan shakldagi an’anaviy koreys libosi – hanbok kiyiladi.

Koryo saramlar bayramlari ham o‘ziga xosdir. Seollal (Koreys Yangi Yili) va Chuseok (hosil bayrami) kabi bayramlar, Markaziy Osiyoda o‘zgargan shaklda nishonlanadi. Masalan, Seollal bayrami, Janubiy Koreyadagi kabi katta oilaviy yig‘ilishlarga ega bo‘lmasa-da, oilalar orasida an’anaviy taomlar tayyorlash va o‘yinlar o‘tkazish odatiga aylanib borgan. Chuseok esa, asosan xotira va minnatdorchilikni ifodalashga qaratilgan. Koryo saramlar, bu bayramlarni mahalliy madaniyat bilan uyg‘unlashtirib, o‘ziga xos tarzda o‘tkazadilar [5].

Madaniy moslashuv

Koryo saramlar yashayotgan hududlarda o‘zbek, qozoq va boshqa turkiy xalqlar bilan qo‘shni yashashganligi sababli, ularning ovqatlanish, kiyinish va mehnat madaniyatiga ta’sir bo‘ldi. Masalan, koreyslar an’anaviy taomlari – kuksi, kimchini saqlab qolgan holda, o‘zbekcha osh, manti, somsa kabi taomlarni ham o‘zlashtirishdi.

Sovet davrida koreys maktablarining yopilishi, rus tilida ta’lim majburiyati va ijtimoiy ko‘tarilishning rus tiliga bog‘liqligi sababli, koreys tili sekinlik bilan yo‘qola boshladi [6].

Ayni paytda, aralash tillilik (code-switching) holatlari keng tarqalgan: ko‘pchilik koreyslar rus tilida erkin gapiradi, ayniqsa o‘rta va katta avlod vakillari. Yoshlar orasida esa rus va o‘zbek yoki qozoq tillari aralashchasi muloqot qilish holatlari kuzatiladi [7].

Bugungi kunda aralash nikohlar Koryo saramlar orasida keng tarqalgan hodisadir. Qozog‘istonda olib borilgan 2018-yilgi tadqiqotga ko‘ra, yosh koreyslar orasida boshqa etnos vakillari bilan turmush qurish holatlari 50% dan oshgan [8].

Bu esa ularning madaniy identitetiga yangicha tus bermoqda.

Koryo saramlar dastlab konfutsiylik, buddizm va shamanizm e’tiqodlariga amal qilishgan. Biroq Sovet Ittifoqidagi ateistik siyosat natijasida diniy amaliyotlar siqib chiqarildi. Mustaqillikdan so‘ng esa xristianlikning protestant oqimlari, ayniqsa, Qozog‘iston va O‘zbekistondagi koreys cherkovlari orqali yana tiklana boshladi [9].

Markaziy Osiyoga 1937-yilda majburan ko‘chirib kelingan koreyslar koryo saram – og‘ir tarixiy sharoitlar, madaniy bosim va til siyosati ta’sirida katta sinovlardan o‘tgan diaspora hisoblanadi. Ular dastlabki davrlarda ocharchilik, iqlim muammolari va mahalliy aholiga moslashish bilan kurashgan bo‘lsalar-da, asta-sekin jamiyatning faol, barqaror qatlamiga aylanishdi.

Ularning madaniy hayoti murakkab ikki yo‘nalishda rivojlandi: bir tomondan, an’anaviy koreys qadriyatlarini, xususan, urf-odatlar, oshxonasi, qadriyatlar va oila tuzilmasi – avloddan avlodga o‘tmoqda. Boshqa tomondan esa, ular o‘zbek, qozoq, rus madaniyatining muhim jihatlari ham o‘zlashtirgan. Ayniqsa, til sohasida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmoqda – koreys tilini faol biluvchi yoshlar soni kamaymoqda, biroq ularning ko‘pchiligi koreysligini identitet darajasida saqlab qolmoqda [10]. Koryo saramlar orasida aralash nikohlar, aralash tillilik va diniy yangilanishlar bu diasporaning dinamik va moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Ular ko‘plab madaniy birikmalar orqali ikki (va ba’zida uch) madaniyatli shaxslar sifatida shakllangan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo koreyslari bugungi kunda o‘z tarixiy ildizlarini unutmagan holda, zamonaviy jamiyatga faol integratsiyalashgan diaspora sifatida e’tirof etiladi. Ularning tajribasi madaniy moslashuv, madaniy merosni saqlab qolish va ko‘p madaniyatli jamiyatda yashashning muhim namunasi. Bu nafaqat tarixiy saboq, balki ko‘p millatli davlatlar uchun ijobiy ijtimoiy modellarni yaratish imkonidir.

REFERENCES. IQTIBOSLAR. ЧОСКИ.

1. German N. K. Koryo Saram, or Koreans of the Former Soviet Union: In the Past and Present *Amerasia Journal*, 2003. – №2. – P. 1.
2. Johannes R. M. Sch. Korean diaspora Central Asia, Siberia and Beyonderschienen in der Reihe der // *Universitätsdrucke im Universitätsverlag Göttingen*. – 2020. – P. 26.
3. Yuqoridagi asar.... – P. 27.
4. German K. Koryo Saram: The Koreans of the Former USSR... – P. 12.
5. O'sha joyda.
6. Ogorodnikova L. Language Maintenance among Koryo Saram," *Soviet Studies in Ethnography*, 1991. – P. 4.
7. German N. K. Koryo Saram: Koreans in the Former Soviet Union, *Amerasia Journal*, 2003. – P. 3.
8. Lee F. *Interethnic Marriages among Soviet Koreans / Asian Ethnicity*. 2018.
9. Eisen S. *Korean diaspora in Central Asia // Korean Studies*, 2010.
10. Dala yozuvlari. Namangan viloyati Davlatobod tumani. 2024-yil.